

## XORAZMSHOH ALOUDDIN MUHAMMADNING IROQ MAMLAKATIGA YURISH QILISHDAN OLDIN AMALGA OSHIRGAN EHTIYOTKORLIK TADBIRLARI

*Marimov Muzaffar Erkinovich, Urganch Ranch texnologiya universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası stajor-o'qituvchisi*



<https://orcid.org/0009-0003-9143-2844>

e-mail:  
[muzaffarmarimov700@gmail.com](mailto:muzaffarmarimov700@gmail.com)

## МЕРЫ ПРЕДОСТОРОЖНОСТИ, ПРИНЯТЫЕ ХОРЕЗМШАХОМ МУХАММАДОМ ПЕРЕД ПОХОДОМ В СТРАНУ ИРАК

*Маримов Музаффар Эркинович, стажер-преподаватель кафедры "Социальные науки" Ургенчского технологического университета Ранч*

## PRECAUTIONS TAKEN BY KHORAZMSHAH MUHAMMAD BEFORE GOING TO THE COUNTRY OF IRAQ

*Marimov Muzaffar Erkinovich, trainee teacher of the Department of Social Sciences, Urgench Ranch Technological University*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XI–XIII asrlarda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan, katta kuch-qudrat va obro'-e'tiborga ega bo'lgan Xorazmshohlar davlatining hukmdorlaridan bo'lgan Sulton Alouddin Muhammadning Iroq hududiga yurish qilishi va uni bosib olishdan oldin qanday ehtiyotkorlik tadbirlarini amalga oshirganligi va shu bilan birgalikda, o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ham aks etgan.

**Kalit so'zlar:** Anushtegin, Xorazmshoh, lashkar, navba, tashtdor, noib, farmon, G'azna, Bomiyon, Nasa, Kirmon, Iroq.

**Abstract:** In this article, Sultan Alauddin Muhammad, one of the rulers of the Khorezmshahs, who ruled Central Asia in the 11th-13th centuries and was one of the rulers of the Khorezmshah state, which had enormous power and prestige, describes the campaign against the territory of Iraq and the precautions that he took before its conquest, and at the same time, the socio-political processes of that time were reflected.

**Key words:** Anushtegin, Khorezmshah, Lashkar, Navba, Tashtdar, Naib, Decree, Ghazna, Bamiyan, Nasa, Kirman, Iraq.

**Аннотация:** В данной статье султан Алауддин Мухаммад, правивший Средней Азией в XI–XIII веках и являвшийся одним из правителей государства хорезмшахов, обладавшего огромной властью и престижем, описывает поход на территорию Ирака и меры предосторожности, которые он предпринял перед ее завоеванием, и в то же время были отражены и общественно-политические процессы того времени.

**Ключевые слова:** Ануштегин, Хорезмшах, Лашкар, Навба, Таштдар, Наиб, Фарман, Газна, Бамиан, Наса, Курман, Ирак.

**KIRISH.** Xorazm vohasi tarixda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shakllanishida muhim o'rin egallagan. So'nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ilm-fan

taraqqiyotida, xususan tarix fani rivojida muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda. Tarix fanining barqaror rivojlanishi va tadqiqotlar natijasida fan sohasida yangi yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Davlat dasturlari

asosida O‘zbekistonning tarixiy viloyatlaridan hisoblangan Xorazm hududida hukmronlik qilgan Anushtegin Xorazmshohlar tarixini o‘sha davrda yaratilgan manbalar asosida o‘rganishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “Xorazm deganda, jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan, milliy davlatchiligimizning tamal toshi qo‘yilgan betakror bir o‘lka ko‘z oldimizga keladi”<sup>1</sup>. Sulton Alouddin Muhammadning Iroq mamlakatiga yurish qilishidan oldin amalga oshirilgan tadbirlarini an-Nasaviy o‘z asarida batafsil bayon qilib o‘tadi. Bu paytda Sultonning amalga oshirgan tadbirlaridan biri Zulqarnayn navbasining (shoh kirishi sharafiga musiqiy madhiya) tantanali ijro qilinishining belgilanishi bo‘ldi. Xorazmshoh Muhammad bir qancha mamlakatlarni va viloyatlarni qaram qilgach, ularning hukmdorlari, sultonlari, maliklarini, oila a‘zolarini asir olgach, qudratli davlat barpo etdi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** Ushbu mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotlardan biri – bu Muhammad an-Nasaviyning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” asaridir. Mazkur asarda Xorazmshohlar davlatining tarixi bilan birgalikda Sulton Alouddin Muhammadning olib borgan siyosatiga to‘xtalib o‘tilgan. Yana bir muhim manbalardan biri Ziyo Bunyodovning “Anushtegin – Xorazmshohlar davlati” (1097-1231) asaridir<sup>2</sup>. Kitob Markaziy Osiyo xalqlarining 140 yillik davri tarixini qamrab oladi. Movarounnahrdagi vujudga kelib, buyuk saljuqiylar davlatini va Bag‘dod xalifaligini larzaga solgan, bosqinchi qoraxitoylar davlatini tor-mor keltirgan, so‘nggi g‘aznaviylarni ham o‘ziga bo‘ysundirgan, markazi Xorazm bo‘lgan qudratli davlat tarixi, siyosiy-iqtisodiy tuzumi, yuksak madaniyati va shu bilan birgalikda Alouddin Muhammadning faoliyati ham bu kitobda ishonchli asl manbalar asosida yoritib beriladi. Ozod Masharipovning 4 jildlik “Xorazmnoma” asarida mazkur mavzuga oid ma‘lumotlar batafsil yoritib berilgan. Undan tashqari Qudrat Masharipovning “Jaloliddin Manguberdi buyuk vatanparvar

sarkarda” nomli monografiyasi Xorazmshohlar davlati tarixini yoritishda muhim manbalardan biri sanaladi. Xususan unda Alouddin Muhammadning faoliyatiga alohida e‘tibor qaratiladi.

Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo‘llanildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Xorazmshohlar davlati musulmon olamidagi boshqa davlatlardan ulug‘vorligi va kuch-qudrati bilan ajralib turar edi. Shunga monand tarzda Sulton saroyida o‘tadigan anjumanlarni, tadbirlarni ham shohona va tantanalibroq, ulug‘vorlik jo‘sh urib turadigandek qilib o‘tkazishga intilar edi. Bu yerda o‘tadigan har bir tadbir uning qudratini namoyon qilishi kerak edi. Zulqarnayn navbasining belgilanishi ham shundan darak beradi. Xorazmshoh qaytish navbasini chalishni asir sultonlar va maliklarga buyurgan. Avvalgi paytlarda uning o‘zi uchun, boshqa sultonlarga ibrat qilib ko‘rsatish maqsadida, besh vaqt namozga monand ravishda kuniga besh marta navba belgilangan edi. Bu ahvol Alloh uning mamlakati qudratini yuksaltirib, o‘zining martabasini oshirgunga qadar davom etdi. Iroqqa qarshi yurishi davrida u besh marta navbani o‘g‘illariga – sultonlarga haqiqiy meros qilib berdi. Bu navbalar o‘g‘illariga mulk qilib berilgan mamlakatlarda sulton saroylarining darvozalari oldida ijro qilina boshlandi. Bu navba quyosh chiqishi va botishi paytida ijro qilinadigan bo‘ldi. Uni ijro qilish uchun yigirma yettita tilla nog‘oradan, turfa ranglardagi tayoqlardan va boshqa musiqa asboblardan foydalanildi<sup>3</sup>.

Navba ijro etilishi belgilangan kun tantanali va ulug‘vor kechishi o‘zining qudratini ko‘rsatib qo‘yish uchun 27 ta mamlakatning mashhur hukmdorlari, sultonlarining o‘g‘illari tanlab olindi<sup>4</sup>. Ular orasida To‘g‘rul ibn Arslon as-Saljuqiyning o‘g‘li, G‘ur, G‘azna, Hindiston hukmdori G‘iyosiddinning o‘g‘illari, Bomiyon hukmdori Malik Alovuddin, Balx hukmdori Malik Tojiddin, uning o‘g‘li, Termiz hukmdori al-Malik al-A‘zam, Buxoro hukmdori Malik Sanjar va boshqalar bor edi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқ депутатлари Хоразм вилояти кенгашининг навбатдан ташқари сессиясидаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/1147>

<sup>2</sup> Бунёдов З. Ануштагин - Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) (Аҳмад Ашраф ва Маҳкам Маҳмуд

таржимаси). –Т.: F.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1998.– Б.153.

<sup>3</sup> Бунёдов,З. Хоразмшоҳлар-ануштегинлар давлати. – Т.: MUMTOZ-SO‘Z, 2012. – Б.192.

<sup>4</sup> Masharipov,Қ. Жалолитдин Мангуберди буюк ватанпарвар саркарда. – Т.: Наврўз, 2019. – Б.124.

Uning maqsadi mamlakatlar hukmdorlari sonini yigirma yettitaga yetkazish edi, shu sababli ular safiga jiyani (ukasining o'g'li) Erbozxonni va o'z mamlakati vaziri Nizomulmalik Nosiriddin Muhammad ibn Solihni ham qo'shdi. Navba ijro qilinadigan paytda tillo nog'oralarni chaladiganlar ana shulardan iborat bo'ldi<sup>5</sup>.

Sulton amalga oshirgan tadbirlardan yana biri quyidagicha edi. U Iroqqa yurishdan oldin so'zda uni tan olib, amalda o'ziga zimdan qarshi bo'lganlardan, boshqacha aytganda, sotqinlardan Movarounnahrni tozalashni niyat qilgandi. Sulton Nasa shahriga O'trorning hukmdori Tojiddin Bilkaxonni jo'natdi va unga o'sha yerda qolishni buyurdi. Bilkaxon uning safiga qo'shilgan xitoyilardan birinchisi edi. An-Nasaviy Bilkaxonni shunday tasvirlaydi: "U shunday chiroyli ediki, qorong'u tunni kunduz kabi charog'on qilib yuborardi, yuzidagi nur bilan tun zulmatini bartaraf etardi"<sup>6</sup>.

Sulton Movarounnahrni xitoyilardan tortib olganidan keyin Bilkaxon o'z xohishi bilan Sulton xizmatiga o'tgandi. Chunki ular orasida yaqinlik bor edi. Bu yaqinlik shundan iborat ediki, Sulton Takish vafotidan keyin Sulton Muhammad davlati hali mustahkamlanib ulgurmasdan va boshqalar hujumiga qarshi zarba berish imkoni yo'q paytida Shihobiddin al-G'uriy atrofiga ko'plab kuchlar hamda qo'shinni yig'ib, Xorazmgga yurish qildi. Shunda Tojiddin Bilkaxonning o'zi amakivachchasi, Samarqand hukmdori, Usmon bilan birgalikda qo'shinlarini jangga shay qilib Andxudda (Afg'onistondagi shahar) Shihobiddin al-G'uriyga kutilmaganda hujum qildi. Bu haqda Ibn al-Asir o'zining "al-Komil" asarida batafsil ma'lumot beradi. Uning mard, dovyurak yaqin do'stlaridan, sadoqatli lashkarlaridan ko'pchiligi bu yerda halok bo'ladi. Shu bilan Alouddin bilan o'rtasida yaqinlik paydo bo'ladi. Tojiddin Bilkaxon Alouddin Muhammad taxtga o'tirgach, unga qilgan bu va boshqa xizmatlarim uning menga ishonchini kuchaytiradi, hurmat-izzatimni oshiradi deb o'ylardi. Bilkaxon Sulton huzuriga kelganda Sulton uning avvalgi xizmatlarini eslab hurmat bilan kutib

oldi. Sulton Iroqqa yurish qilishini o'ylagunga qadar ana shunday munosabat saqlanib qoldi.

Lekin Sulton baribir ham unga ishonmas edi. Shundan keyin Sulton uning Movarounnahrda qolishini xohlamaydi va uni Nasaga ketishini va o'sha yerda yashashni buyurdi. Uni boshqa shaharga emas, aynan Nasaga jo'natarkan, bu yer nihoyatda issiq, kasalliklar ko'p, muhiti nosog'lom ekanligini nazarda tutgandi. Shu yo'l bilan Sulton undan qutilmoqchi edi. Yuqorida aytganimiz Bilkaxon bu yerda bir yildan ortiqroq yashadi. U taqdir bevafoqligini sabr bilan yengdi, boshiga tushgan tashvishlardan nolinmadi. Saxiyligi va axloqan pokligi uchun uning obro'si kundan kunga oshib bordi. Bu yerda uning huzuriga salomlashish uchun kirib biror sovg'a olib chiqmagan odam yo'q edi. Aksiga olib, Nasaning havosi va suvi unga yoqib qoldi. Nasaning taniqli odamlari ham, xalqi ham uni yoqtirib qoldi, har bir odam uni hurmat qilardi. Sulton bu haqda eshitganidan keyin Bilkaxonga nisbatan munosabatini o'zgartirmasa, ya'ni unga ishonch, hurmat-izzatni yig'ishtirib qo'yib, qattiqqo'lligi, ayovsizligini namoyon qilmasa, ko'zlagan maqsadiga erisha olmasligini tushundi.

Xorazmshoh jallod Ayozi Jahon Pahlavon boshchiligida kallakesarlarni Bilkaxonni yo'q qilish uchun yuboradi<sup>7</sup>. An-Nasaviyga bu qotillikda ishtirok etganlardan biri quyidagicha hikoya qilib bergandi: "Bizlar sultonning Nasadagi vaziri Zohiriddin Mas'ud ibn al-Munavvar ash-Shoshiy huzurida edik. Shunda kimdir uning yoniga kirib Jahon Pahlavon bir nechta odamlari bilan kelganini ma'lum qildi. Jahon Pahlavon tashtdor Ayozi bo'lib, u tashtdorlikdan maliklik darajasigacha, o'n ming otliq lashkarlarga sarbozlikkacha ko'tarilgan odam edi<sup>8</sup>.

U boshlarni tanasidan judo qiluvchi va umuman, qatl ishlarini amalga oshiruvchi bo'linmaning boshlig'i qilib tayinlangan edi. U bir guruh odamlari bilan kelgandi. Nomi yuqorida eslatilgan vazir bu xabarni eshitib dahshatga tushadi. U uning kelganidan nihoyatda qo'rqadi, kulfat mening boshimga tushadigan bo'ldi deb o'yladi.

<sup>5</sup> Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / К.Матёқубов тарж./ –Т.: Ўзбекистон- Ёзувчи, 1999. – Б.55.

<sup>6</sup> O'sha yerda, – B.55.

<sup>7</sup> Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / К.Матёқубов тарж./ –Т.: "Ўзбекистон"- "Ёзувчи", 1999. – Б.57

<sup>8</sup> *Tashtdor*- saroydagi lavozim, hukmdorlar qo'lini yuvganda tog'ora (tasht) tutuvchi. Tashtxona- saroydagi tog'oralar saqlanuvchi xona.

Uning sekin nafas olishidan bo‘lak yuzida hayot alomati qolmadi. Nafas olishi ham sal bo‘lmasa to‘xtab qolay dedi. Keyin unga kelganlar hokim uyi (dar as-saltana)da to‘xtaganligini ma‘lum qilishdi va “az-Zohirni o‘z odamlari bilan tezlikda olib kelinglar!” degan buyruq berilganini eshitdi. Az-Zohir otiga mindi va ular huzuriga yo‘l oldi. U otiga minganda jilovini ushlagga ham madori qolmagandi. U yetib borgach, Jahon Pahlavon uning qo‘liga farmonni (tavqni) tutqazdi. Farmon o‘qib bo‘lingach, ular Malik Tojiddin Bilkaxonni bu yerga qanday taklif qilishni maslahatlashadi. Maslahatga ko‘ra, Sulton saroyida muhim ish tayinlagani, bunda uning ishtirok etishi zarurligi ham yetkaziladi. U atrofidagi kuzatuvchi lashkarlari bilan yetib keladi. Shundan so‘ng jallodlardan biri Bilkaxonning boshini tanasidan judo qiladi. Jahon Pahlavon uni qopga soladi va uning boshini Xorazmga jo‘natadi. Bu voqea 1217-yilda yuz beradi<sup>9</sup>.

Sulton amalga oshirgan tadbirlardan yana biri Buxoro hanafiylarining raisi va xatibi “Sadr Jahon” nomi bilan mashhur bo‘lgan Burhoniddin Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulaziz al-Buxoriyni Xorazmga jo‘natishi bo‘ldi<sup>10</sup>. Agar kimdir uni faqat Buxoroning xatibi sifatida bilgan bo‘lsa, u xatiblar ichida eng yuqori darajaga erishgani edi. Uning beqiyos darajada ko‘p mulki, yeri, uylari bo‘lib, obro‘si ulug‘, shon-shuhrat cho‘qqisiga ko‘tarilgandi. Shu bilan birga u g‘oyat saxiy, qo‘li ochiq odam edi. Shu jihatdan uni faqat mashhur mulk egalari, taniqli mansabdorlar bilan taqqoslashning o‘zi kamlik qilar edi. Chunki uning g‘amxo‘rligi, mehribonligi tufayli qo‘l ostida yashagan va yashayotganlar soni olti ming faqihga yaqinlashardi. U javonmard, kuch-quvvati to‘lib-toshgan, harakatchan inson edi. Uning ostonasi ulug‘, odamlar uchrashadigan maskan, ilmlar bozori edi. Bu bozorga eng yaxshi mahsulotlar olib kelinar va ular yuqori baholarda sotilardi. U Xorazmda ham, taqdir bevafoqliklariga qaramasdan, sovg‘alar ulashishda davom etdi. Boshqalar bunday sovg‘alarni barcha imkoniyatlarga ega bo‘la turib ham berolmagan bo‘lardi. Mustaqil harakat

<sup>9</sup> Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / К.Матёқубов тарж./ –Т.: Ўзбекистон- Ёзувчи, 1999. – Б.63.

<sup>10</sup> *Burhoniddin Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulaziz al-Buxoriy* - Buxoroning merosxo‘r raislari sulolasi vakili. Buxoro raislari “Sadr Jahon” unvoniga ega bo‘lishgan. Ular shahar hukmdorlari bo‘lib, aholidan mablag‘ yiqqanlar.

qilishdan, qonunlar chiqarish imkonidan, o‘z fikrlarini ochiq-oydin aytishdan mahrum etilgan Burhoniddin Xorazmda Alloh oldidagi qiyomat qarzini uzib, taqdir hukmiga bo‘ysunib, vafot etgunga qadar yashadi. U Turkon xotun Xorazmdan qochayotgan paytda o‘ldiriladi.

Sultonning amalga oshirgan tadbirlaridan yana biri Samarqandlik shayxlar Jaloliddin, uning o‘g‘li Shamsiddin, ukasi Avhadiddinni qo‘zg‘olon ko‘tarib, nizolar olovini kuchaytirmasligi uchun Nasaga jo‘nattirgani bo‘ldi. Ular ma‘rifatli, ilmi kishilar bo‘lib, deyarli barcha fanlarning taraqqiy etishida o‘z hissalarini qo‘shgan olijanob insonlar edilar. Avhadiddin munozara fanida mo‘jizakor kuchga ega bo‘lib, u al-Amidiy bilan bemalol bahslasha olar edi<sup>11</sup>. Uning fikrlari, xulosalarining noto‘g‘ri ekanligini yaqqol isbotlab bera olardi. Shon-shuhrat borasida an-Nishopuriy bilan musobaqalashar, uning fikrlari asossiz ekanligini ko‘rsatardi<sup>12</sup>.

Sultonning amalga oshirgan tadbirlaridan yana biri, uning davlatni o‘g‘illariga taqsimlab bergani va ularning har qaysisini bosib olingan mamlakatlarga hukmdor qilib qo‘ygani bo‘ldi. Xorazm, Xuroson, Mozandarinni boshqarish huquqini u o‘z valiahdi Qutbiddin O‘zlog‘shohga berdi. Farmonlarini tasdiqlash uchun unga laqab emas, quyidagi tarzda “Islom amirining yordamchisi, Sulton Sanjarning o‘g‘li Sulton Abul Muzaffar O‘zlog‘shoh degan nom berildi”. Ularning odatiga ko‘ra aslida valiahdning laqabi tug‘roga yozilmagan. U otasi o‘rnini egallagandan keyingina uning barcha laqablarini olgan. Sulton Alouddin Muhammad Qutbiddin O‘zlog‘shohni ikki akadan – Jaloliddin Manguberdi va Rukniddin G‘ursanjtiydan oldin taxt vorisi qilib belgilashi onasining o‘sha vaqtda mavqeyi yuksak bo‘lgan Turkon xotun amriga bo‘ysungani bilan izohlanadi. Negaki, Qutbiddinning onasi, uning boshqa bolalarining onalaridan farqli o‘laroq, Turkon xotunga aloqador bo‘lgan Bayot urug‘idan

<sup>11</sup> Rukniddin Abu Hamid Muhammad al-Amidiy as-Samarqandiy - 1218-yilda Buxoroda vafot etgan. Hanafiylar faqihi.

<sup>12</sup> Radiaddin Abu Ja‘far Muhammad an-Nishopuriy-hanafiylar faqihi al-Amidiyning ustoz. 1201-1202-yillarda vafot etgan.

edi. Bu urug‘, o‘z navbatida, Yemek qabilasining bir qismi hisoblanardi<sup>13</sup>.

G‘azna, Bomiyon, al-G‘ur, Bust, Takinobod, Zamin Davar va Hindiston bilan chegaradosh bo‘lgan viloyatlarni boshqarish huquqini katta o‘g‘li Jaloliddin Manguberdiga berdi. Uning vaziri qilib sadr Shamsulmulk Shihobiddin Alp al-Xaraviyni tayinlaydi. U Jaloliddinni bolalari ichida ko‘proq suyar, uning mardligiga tan berar, shuning uchun uni yonidan, xizmatidan uzoqlashtirgisi kelmasdi. Noib Kuzbor Malik viloyatlarni boshqarish uchun o‘sha tomonga boradi va u yerdagi ishlarni yo‘lga qo‘yadi. Shu bilan u Jaloliddin borguncha boshqaruvni o‘z qo‘lida tutib turadi<sup>14</sup>.

Kirmon, Kesh, Makronni Sulton o‘g‘li G‘iyosiddin Pirshohga berdi. Uning vaziri qilib sadr Tojiddin ibn Karim ash-Sharq an-Nishopuriy tayinlandi. U (G‘iyosiddin) ham o‘z mulkiga totolar bosqinidan so‘ng bordi va bu viloyatlarni sulton o‘limi hamda Jaloliddinning Hindistonga yurishidan keyin Iroqni himoya etadigan, hukmdorlik qiladigan odam qolmaguncha boshqardi. Keyin G‘iyosiddin Baroq hojibni Kirmondagi noibi qilib tayinlab, bu yerdagi mulklarni unga topshirib, shu bilan o‘ziga o‘lim istab, Iroqqa yo‘l oldi. Iroq hukmdorligini Sulton o‘g‘li Rukniddin G‘ursanjiyga ishonib topshirdi.

**XULOSA.** Tarixchilar xorazmshohlar davlatining eng gullab-yashnagan davri Alouddin Muhammad hukmdorlik qilgan davrga to‘g‘ri kelishini ta’kidlashadi. Zero, 1217-yilga kelib, bu davlat butun O‘rta Osiyoni, shuningdek Fors ko‘rfazigacha bo‘lgan hududlarni birlashtirib beqiyos qudrat kasb etdi. Aloiddin Muhammad ko‘plab boshqa mamlakatlarni kuch ishlatmasdan,

zo‘ravonliksiz, vayronagarchiliklarsiz, siyosat, diplomatiya yo‘li bilan qo‘lga kiritdi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda Sulton Alouddin Iroq mamlakatiga yurish qilishidan oldin puxta tayyorgarliklarni ko‘rib, uni bosib olishdan oldin bir qancha muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Tarixiy manbalarda xorazmshoh 400ga yaqin shaharni, o‘z davlati tarkibida birlashtirganligi ta’kidlanadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / К.Матёкубов тарж./ – Т.: “O‘zbekiston”, 2006.
2. Бунёдов З. Хоразмшоҳлар-ануштегинлар давлати.–Т.: МУМТОЗ-СЎЗ, 2012.
3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения, Т. I. – Москва: Издательство Восточной литературы, 1963.
4. Машарипов.Қ. Жалолиддин Мангуберди буюк ватанпарвар саркарда. – Т.: Наврўз, 2019.
5. Раҳимов, Ж . Ватаннинг шерюрак баҳодири. – Т.: Талқин, 2015.
6. Машарипов О , Абдуллаев Ў. Хоразмнома. – Т.: Фан ва технологиялар нашриёти, 2022.
7. Абдураимов Б. Хоразмийлар изини излаб. – Т.: Шарқ, 2021.
9. Нурёғди Тошев. Жалолиддин Мангуберди. – Т.: Камолот. 1999.
10. Саидов Ш. Султон Жалолиддин Мангуберди давлати ва жанговар ҳаракатлар харитаси. – Тошкент, 2000.
11. Нурмухамедов Х. Жалолиддин Мангуберди. – Тошкент, 1999.

<sup>13</sup> Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / К.Матёкубов тарж./ –Т.: “Ўзбекистон” - “Ёзувчи” ,1999. – Б.60.

<sup>14</sup> Машарипов.Қ. Жалолиддин Мангуберди буюк ватанпарвар саркарда. – Т.: Наврўз, 2019. – Б.131.